



## PEDAGOGNING SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYALARI

**Rashidova R.**

*Qarshi davlat universiteti  
Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

**Po'latova F.R.**

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Tayanch so'zlar:** pedagogik kompetensiya, sotsiolingvistika, psixologik omillar, situativ omillar, pedagogning sotsiolingvistik kompetensiyalari, adekvat, ijtimoiy-pedagogik.

**Ключевые слова:** педагогическая компетентность, социолингвистика, психологические факторы, ситуативные факторы, социолингвистические компетенции педагога, адекватные, социально-педагогические.

**Key words:** pedagogical competence, sociolinguistics, psychological factors, situational factors, sociolinguistic competencies of an educator, adequate, socio-pedagogical.

Pedagogik ta'lim jarayoni oldiga qo'yilayotgan zamonaviy ijtimoiy talablar jarayonga kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Ya'ni bugungi kunda pedagog kadrlar tayyorlash tizimiga malakali, izlanuvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, yuksak ma'naviyatli mutaxassislarni tayyorlash talabini qo'yimoqda. Kompetensiya va pedagogik kompetensiyalarga doir qarashlar va tadqiqotlar tahlili bo'lajak o'qituvchilarda sotsiolingvistik kompetensiyalarni shakllantirish muammosining dolzarb va ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni talabalarda faqatgina grammatik savodxonligini va lug'at boyligini oshirishni nazarda tutib qolmasdan, ijtimoiy, situativ va psixologik omillar ta'siri ostida to'g'ri muloqot variantini tanlashni ham qamrab oladi.

Pedagogning sotsiolingvistik kompetensiyalari – bu pedagogik faoliyatni va pedagogik muloqotni ijtimoiy, pedagogik va psixologik omillarni hisobga olgan holda samarali tashkil etish uchun til birliklari va kategoriyalarini chuqur o'zlashtirishi, muloqot kechayotgan vaziyatni to'g'ri baholay olishi natijasida suhbatdoshiga samarali pedagogik ta'sir o'tkazish va nutq madaniyati meyorlaridan



adekvat foydalanish qobiliyati hamda ushbu jarayonda zarur bo'ladigan ijtimoiy, pedagogik, lingvistik, psixologik bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir.

Pedagogik kompetensiyalar sirasiga kiruvchi sotsiolingvistik kompetensiya quyidagi komponentlardan iborat:

- Ijtimoiy-pedagogik subkompetensiya;
- Lingvistik subkompetensiya;
- Psixologik subkompetensiya.

Pedagogik faoliyat va pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchi uchun zarur bo'ladigan sotsiolingvistik kompetensiya komponentlar o'z navbatida qator bilim va ko'nikmalarni qamrab oladi. Ularning har biri ustida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Pedagogning ijtimoiy-pedagogik subkompetensiyasi komponentlari.

Ijtimoiy-pedagogik subkompetensiya ijtimoiy vaziyatni to'g'ri baholay olish, pedagogik bilim va ko'nikmalarni qamrab olgan holda quyidagi komponentlardan iboratdir.

Pedagogning ijtimoiy-pedagogik subkompetensiyasi sotsiolingvistik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, o'qituvchiga pedagogik faoliyat davomida ijtimoiy muhit ta'sirini inobatga olish va o'z navbatida ijtimoiy muhitga faol ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

Ijtimoiy pedagogik kompetensiyaga ega bo'lish uchun quyidagi bilim va ko'nimalarni egallash lozim:

Ijtimoiy-pedagogik bilimlar – pedagogning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohadagi vaziyat haqidagi, o'zi a'zosi bo'lgan jamoadagi munosabatlarga doir, suhbatdoshining ijtimoiy mavqei hamda qarashlarini aniqlashga doir, pedagogik vaziyatni to'g'ri tahlil etish va talqin eta olishga doir bilimlari doirasini qamrab oladi. Bunday bilimlar samarali pedagogik faoliyatni, muloqotni tashkil etishda konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchanlik o'qituvchidan suhbatdoshi (shaxs yoki jamoa) bilan muloqotga kirishishda uning psixologik holatini aniqlash, chuqur tahlil qilish hamda to'g'ri muloqot shakli, uslubini tanlay bilimsh ko'nimasini talab etadi. Tashkilotchilik qobiliyati ijtimoiy-pedagogik jarayonni tashkil eta olish, muloqot jarayonini, ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish, boshqaruv uslublarini to'g'ri tanlay bilish, vaqtni va ish tartibini oqilona tashkil etish hamda boshqarish imkoniyatlarini ishga solishni talab etadi.

Variativlik – pedagogik muloqot jarayonini tashkil etish hamda til birliklaridan foydalanishda bir qancha variantlarga ega bo'lish, ularni vaziyat hamda suhbatdoshining ijtimoiy-psixologik va pedagogik darajasi, mavqei hamda holatiga mos ravishda tanlashga yordam beradi.

Adaptivlik – pedagogning turli pedagogik vaziyatlarga moslashuvchanligi bo‘lib, pedagogik faoliyatni tashkil etish jarayonida o‘qituvchiga o‘z kayfiyati, his-tuyg‘ularini boshqarishga, pedagogik muloqot sharoitiga moslashishga va o‘z navbatida turli salbiy ta’sirlardan o‘zini himoya qilishga doir ko‘nikmalarini qamrab oladi. Adekvatlik – pedagogik imkoniyatlari, lingvistik kompetensiyalaridan turli pedagogik vaziyatlar uchun to‘g‘ri bo‘lgan holatda foydalanishga doir ko‘nikmalarni qamrab oladi. Adekvatlik turli til birliklari, barqaror lingvistik kombinatsiyalar, jumlar, iboralar, sitatalardan pedagogik muloqot jarayonida adekvat ravishda foydalanishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘z ichiga oladi.

Lingvistik subkompetensiya sotsiolingvistik kompetensiya asosiga kiruvchi komponent bo‘lib, u o‘qituvchiga pedagogik faoliyati davomida amalga oshiradigan muloqotni mazmundorligi, samaradorligini taqsimlashga xizmat qiladi. Ushbu subkompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Leksik bilim va ko‘nikmalar-pedagogik muloqot jarayonida foydalaniladigan tildagi so‘zlar, iboralar, tilning tarkibi haqidagi bilimlar hamda ulardan amalda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Bunday bilimlar ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchiga ayni vaziyat uchun mos bo‘lgan so‘zlarni tanlash, lug‘at tarkibini yangi so‘zlar bilan boyitish, eskirgan so‘zlarni nutqdan chiqarish kabi vazifalarni amalga oshirishga yordam beradi.

Grammatik bilim va ko‘nikmalar – gap va nutqni tashkil etishda adabiy til meyorlari, grammatik qoidalarga amal qilishni ta’minlashga xizmat qiluvchi bilim va ko‘nikmalar yig‘indisi hisoblanadi. ya’ni nutqni ifodalashda so‘zning grammatik turkumlari, morfologik kategoriyalar, so‘z shakllari, so‘z shakllarining o‘zaro birikishi, gap kategoriyalari, grammatik ma’no kabilarni inobatga olish talab etiladi. Umumiy holda grammatik bilim va ko‘nikmalar morfologiya va sintaksisga doir ma’lumotlarni qamrab oladi. Semantik bilim va ko‘nikmalar – o‘zlashtirilgan til birliklarining ma’noviy jihatlariga doir bilimlar hamda ulardan nutq mazmuniga ma’no jihatidan mos holda foydalanishga doir ko‘nimalardan iborat. Ushbu komponent o‘qituvchiga so‘z, jumla, frazeologizmlardan ma’nosini anglagan holda to‘g‘ri foydalanish orqali nutq samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Orfoepik bilim va ko‘nikmalar – tilning xususiyatiga va talaffuz meyorlariga mos holda og‘zaki nutqni tashkil etilishini ta’minlashga xizmat qiladi. So‘zlar va tovushlarning adabiy til meyorlariga mos holda talaffuz etilishi, nutqning mazmundorligi va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Til birliklari va kategoriyalaridan to‘g‘ri foydalanish – o‘qituvchidan o‘zlashtirgan lingvistik subkompetensiya doirasiga kiruvchi bilim va ko‘nikmalardan pedagogik faoliyat



va muloqot jarayonini samarali tashkil etishda o‘rinli foydalanishni nazarda tutadi. ya’ni o‘qituvchi o‘z nutqida suhbat mazmuniga grammatik, leksik, semantik jihatdan mos bo‘lgan so‘zlardan, jumalalardan, frazeologizm va sitatalardan o‘rinli foydalanishiga yordam beradi.

O‘qituvchining sotsiolingvistik kompetensiyasi yana bir tarkibiy qismi bu uning psixologik subkompetensiyasidir. Psixologik kompetensiyalar pedagogik kompetensiyaning asosiy kompetensiyalaridan biri hisoblanadi. ushbu o‘rinda o‘qituvchining sotsiolingvistik kompetensiyasi asosiy komponentlaridan biri sifatida qayd etilishiga asosiy sabab o‘qituvchiga pedagogik muloqot jarayonini tashkil etishga ijtimoiy muhitni, suhbatdoshini psixologik holatini bilish, uni to‘g‘ri baholash hamda boshqarish muhim talablardan biri hisoblanadi. Pedagogning psixologik subkompetensiyasi komponentlari. Psixolik bilim va ko‘nikmalar – pedagogik faoliyat davomida shaxs va jamoa psixologik holatini o‘rganish, uni to‘g‘ri tahlil va talqin qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bilim va ko‘nikmalardan foydalanish o‘qituvchiga muloqot jarayonini va umuman jamoa faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish hamda boshqarish imkonini beradi.

Kuzatuvchanlik – pedagogik muloqot ishtirokchilari holatini, psixologik vaziyatni o‘rganish, tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Kuzatuv jarayoni o‘qituvchi tomonidan rejali, qisqa muddatli va uzoq muddatli kuzatuv tarzida amalga oshirilishi mumkin. Sezgirlik – ijtimoiy muloqot jarayonida har bir ishtirokchining kayfiyati, his-tuyg‘ularini, fikr-mulohazalarini aniqlashga, muloqot yo‘nalishini o‘rganishga yordam beradi. Sezgirlik o‘qituvchiga jarayon natijasini avvaldan prognoz qilish hamda boshqarish, to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi.

Empatiya – suhbatdoshiga nisbatan bildiriladigan hamdardlik, hamfikrlilik kayfiyati bo‘lib, muloqot jarayonida suhbatdoshining psixologik holati, kayfiyatiga nisbatan bildirilgan hamfikrlilik jarayonni to‘g‘ri tashkil etilishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari muloqot jarayonida har ikkala tomon o‘rtasidagi yakdillik muloqotning ochiqligi, batafsilligiga yordam beradi.

Umumiy holda xulosa qilishimiz mumkinki, pedagogik jarayonda sotsiolingvistik kompetensiya o‘qituvchiga kommunikativ jarayonda ijtimoiy muhitga mos lingvistik meyorlar asosida o‘z-o‘zini va atrofdagilarni ijtimoiylashtirib borishga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Avlaev.O.U. Abdujalilova S. A. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 3983-3991.
2. Jabborova O. M., Jumanova F.U. Mahkamova R. (2020). Formation of Artistic Perception of Future Teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 4087-4095.



3. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar Strategiyasi. 2017 yil 7 fevrvldagi PF-4947-sonli farmoni.
4. Tojiboeva, G. R. (2020). The Training Improve Future Elementary School Teachers. The Way of Science, 1(71), 80-82.
5. Saydaxmetova, D. X. (2020). Mejdunarodniye otsenochniye programmi (PISA, TIMSS, PIRLS) i podgotovka uchenikov k nim. Science and Education, 1(Special Issue 2), 112-120.
6. Tojiboyeva, G. R. (2020). Psixologo-pedagogicheskaya kompetentnost uchitelya nachalnix klassov. Science and World, 1(77), 32-33.
7. Ernazarova G. O., Islamova M. Sh. (2019). Sovershenstvovaniye podgotovki k professii uchashixsya professionalnix kolledjey na osnove akmeologicheskogo podxoda. Pedagogy-Psychology Theory and practice International Scientific Journal, 6(26), 52-55.

**РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada pedagoglarining sotsiolingvistik kompetensiyalariga urg'u berilgan. Pedagog-o'qituvchilar uchun sotsiolingvistik kompetensiyaning ahamiyati, uning o'rganilganlik darajasiga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda butun dunyoda pedagog-o'qituvchilar ustida olib borilayotgan tajriba-sinov ishlari, hamda mamlakatimiz pedagog-o'qituvchilarida o'rganilayotgan jihatlarga ham e'tibor qaratilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В этой статье делается упор на социолингвистические компетенции своих педагогов. Подчеркивается значение социолингвистической компетентности для педагогов-педагогов, степень ее изученности. В статье также рассматриваются опытно-экспериментальные работы, проводимые сегодня педагогами во всем мире, а также аспекты, изучаемые педагогами нашей страны. ubkompetensiya.

**SUMMARY**

This article emphasizes the sociolinguistic competencies of their educators. The importance of sociolinguistic competence for educators-teachers, its level of study, is touched upon. The article also focuses on the experience and testing work carried out on educators and teachers all over the world today, as well as the aspects studied by educators and teachers of our country.